

**IJTIMOIIY SOHA BILAN BOG'LIQ AYRIM MUAMMOLAR VA ULARNI  
BARTARAF ETISH YO'LLARI****Nurboboyev Hamro Odil o'g'li***O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi Magistranti.***Ochilov Ilyos Keldiyorovich***Iqtisodiyot fanlari doktori, "Moliyaviy hisob va hisobot" kafedrasi professori, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent, O'zbekiston. i.ochilov@tsue.uz, ilyos040171@gmail.com., ilyos0471@mail.ru, ORCID: 0000-0002-3350-0891*

**Annotatsiya:** *Ushbu tezida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan biri, bu yo'nalish bilan bog'liq muammolar va ba'zi bir yechimlar keltirib o'tilgan.*

**Kalit so'z:** *Ijtimoiy soha, aholi bandligi, mehnat daromadi, mehnat layoqati, mehnat kooperatsiyasi, nokoorporativ soha, davlat siyosati, ijtimoiy ta'sir.*

**НЕКОТОРЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ СФЕРЫ И ПУТИ ИХ  
ПРЕОДОЛЕНИЯ****Нурбобоев Хамро Одирович***Магистр Банковско-Финансовой Академии Республики Узбекистан***Очиллов Ил'ос Келдиёрович***доктор экономических наук, профессор кафедры «Финансовый учет и отчетность» Ташкентский государственного экономического университета.**Ташкент, Узбекистан. i.ochilov@tsue.uz, ilyos040171@gmail.com., ilyos0471@mail.ru, ORCID: 0000-0002-3350-0891*

**Абстрактный;** *В данной тезисе представлен один из методов, направленных на развитие социальной сферы, проблемы, связанные с этим направлением, и некоторые решения.*

**Ключевое слова:** *Социальная сфера, занятость населения, трудовой доход, трудоспособность, трудовая кооперация, некорпоративная сфера, государственная политика, социальное воздействие.*

**SOME PROBLEMS RELATED TO THE SOCIAL SPHERE AND WAYS TO  
ELIMINATE THEM****Nurboboyev Hamro Odil O'g'li***Master Of Banking And Finance Academy Of The Republic Of Uzbekistan***Ochilov Ilyos Keldiyorovich**

*Doctor of Economic science, Professor of the Department of "Financial accounting and reporting", Tashkent State University of Economics, Tashkent,  
Uzbekistan.i.ochilov@tsue.uz, ilyos040171@gmail.com., ilyos0471@mail.ru, ORCID:  
0000-0002-3350-0891*

**Abstract;** *This thesis cites one of the methods aimed at the development of the social sphere, problems with this direction and some solutions.*

**Key word:** *Social sphere, employment, labor income, labor capacity, Labor Cooperation, Non-corporative sphere, Public Policy, Social Impact.*

## KIRISH

Ijtimoiy sohalar - bu aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni amalga oshiruvchi, jamiyat vakillari tomonidan qiyin hayotiy vaziyatlarni bartaraf etish va engillashtirishga qaratilgan yordam ko'rsatadigan davlat va xususiy boshqaruv organlari, muassasalar va tuzilmalar majmuasidir. Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan biri bu - aholi bandligi.

Aholi bandligi – bu jamiyatning muhim ijtimoiy va iqtisodiy muammolaridan biri bo'lib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi va barqarorligi uchun katta ahamiyatga ega. Aholi bandligi muammosi, asosan, ish bilan ta'minlash, mehnat bozori, ishsizlik va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari bilan bog'liqdir. Ijtimoiy sohada aholi bandligini ta'minlash, jamiyatda iqtisodiy adolatni, barqaror rivojlanishni va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Aholi bandligi masalasi ijtimoiy sohaning turli jabhalarida keng muhokama qilinadi. Bu muammo nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlik va aholining umumiy farovonligiga bevosita ta'sir qiladi.

Bandlik yoki aholini ish bilan ta'minlash – mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy foydali mehnat bilan mashg'ul bo'lishi, fuqarolarning shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan va qonunlarga zid kelmaydigan, mehnat daromad beradigan faoliyati. Bandlik xodimni ijtimoiy mehnat taqsimotiga asoslangan aniq mehnat kooperatsiyasiga jalb etish bo'yicha kishilararo munosabatlarni ifoda etadi. O'zbekistonda bandlik siyosati bozor iqtisodiyotiga o'tishning birinchi bosqichida, ya'ni 1990-yillarda shakllangan. Mamlakatda aholini ish bilan ta'minlash, insonni ishli bo'lish huquqlarini ro'yobga chiqarish kafolatlari „Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida“gi qonunida (1992-yil 13-yanvar; 2020-yil 28-avgustda yangi tahrirda qabul qilingan) belgilab berilgan. O'zbekistonda bandlik muammolari katta e'tiborni talab etadi, chunki respublikada murakkab demografik vaziyat mavjud, aholining tabiiy o'sish sur'atlari yuqori, aholi tarkibida yoshlar ko'pchilikni tashkil etadi, aholining ko'p qismi qishloqlarda yashaydi. Davlat statistika agentligi ma'lumotiga ko'ra, 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakat doimiy aholisining 32,1 foizini (11,8 million kishi) mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar hamda 11,6 foizini (4,3 million kishi) mehnatga layoqatli

yoshdan kattalar tashkil etadi. Iqtisodiy izlanish markaziga ko'ra, hozirgi kunga kelib O'zbekistonning ish siyosati modeli o'z samarasini yo'qotib bormoqda va mamlakatning mehnat bozorida murakkab vaziyat paydo bo'lgan.

Birinchidan, yaratilgan ish o'rinlari soni yetarli emas, yaratilgan ish o'rinlarining aksari bo'lsa barqaror emas. Bundan tashqari, ish o'rinlarning beqarorligi o'sib bormoqda: yaratilgan yangi ish o'rinlarining bir qismi yo'qotilmoqda. Urbanizatsiya jarayonining tezlashayotgani sabab shahar mehnat bozorlarida keskinlik o'sib bormoqda.

Ikkinchidan, nokoorporativ sohaning (individual mehnat faoliyati, uydagi mehnat va yuridik shaxs statusiga ega bo'lgan korxonalaridan tashqaridagi turli faoliyatlar) keng ko'lamda tarqalganligi noustuvor o'sish xavfini oshirmoqda. Bunga sabab nokorporativ soha davlat byudjetiga tushadigan soliqlarni kamaytirmoqda, pul va valyuta almashinishidagi disbalanslar chuqurlashmoqda hamda mehnat aloqalari rasmiylashtirilmagani uchun mehnat kuchi sifati pasaymoqda.

Uchinchidan, mamlakat mehnat siyosati mehnat samaradorligini sust rag'batlantirmoqda hamda mehnat resurslarini yangi o'sish nuqtalari bo'la oladigan tarmoqlarga samarasiz yo'naltirmoqda. Ilm va yuqori texnologiyali tarmoqlarda (ma'lumot xizmati, mashinasozlik, mikrobiologiya) ishlayotganlar ish bilan band aholining atigi 1,5% ini tashlik qiladi. Hozirgi bandlik sturkturasi va investitsiya siyosati sharoitida O'zbekistonda mehnat samaradorligini ikki marta oshirish uchun taxminan 15 yil kerak bo'ladi. Bu esa ishlab chiqarish rivojlangan mamlakatlar bilan O'zbekiston orasidagi farqni kamaytirishni yanada mushkullashtiradi.

Aholi bandligini oshirish bo'yicha asosiy tadbirlar ish bilan band bo'lgan aholining tarkibiy jihatdan qayta taqsimlash hamda mehnatga layoqatli yoshlarni yangi ilg'or tarmoqdar va sohalarga jalb qilish bo'lib, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishning muhim zaxirasi hisoblanadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligida barcha ijtimoiy ishlab chiqarish xodimlarining uchdan bir qismidan ko'prog'i band. Ularning ma'lum qismini bo'shatib olish va iqtisodiyotning boshqa sohasiga, eng avvalo, sanoatga va xizmat ko'rsatish sohasiga yo'naltirish, noqishloq xo'jaligi ish joylarini yaratish, mehnatni tashkil etishning ilg'or uslublarini qo'llash, o'smirlarni, ko'p bolalik ayollarni, pensionerlarni va nogironlarni iqtisodiy rag'batlantiruvchi ish bilan ta'minlash, ishsizlikni kamaytirish, mehnat birjalari faoliyatini yaxshilash kabi tadbirlar aholining ish bilan bandligini oshirishga olib keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2012. – 598 b.
2. Qosimova G.A. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. – T.: “IQTISODMOLIYA”, 2013. – 48 b.
3. Saitqosimov A., Jamiyat barqarorligi va ijtimoiy muammolarni hal etish. – Toshkent, Tafakkur – 2018-yil.